

2019-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra viloyatimizda 18,8 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiy (29,3 ming birlik) sonidagi ulushi 64,1 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 13,4 % ga oshdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,0 mingdan ortigi kichik biznes sub'ektlari hisoblanib, 2019-yil 1-aprel holatiga ularning ulushi 74,6 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-aprel holatiga korxona va tashkilotlarning
umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotganlarning ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (26,2 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-aprel holatida xizmatlar sohasida 16,5 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 25,3 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 4,7 %, tashish va saqlash - 3,7 %, axborot va aloqa - 2,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,1 %, boshqa turlarda - 26,9 % korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-mart

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-aprel holatiga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2,3 mingtaga ko'paydi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan va kichik biznes sub'ektlariga tegishli korxonalar va tashkilotlar soni 2,1 mingtaga ko'paydi.

Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxona va tashkilotlarda qayd etilib, 18,9 % ni tashkil etdi. Ularning soni 1,2 mingtaga ko'paydi.


Shu bilan birga, tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 21,2 % ga oshganligi qayd etilib, 0,2 mingtaga etdi.

2018-yil yanvar-mart oylari nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ko'payishi, ming birlik




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 353,8 mlrd. so'mga oshib, 2091,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlar ulushi 16,9 % yetib, 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan hajmi 147,3 mlrd. so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd.so'm



Bundan tashqari, eng katta ulushlar, savdo xizmatlari, transport xizmatlari shaxsiy xizmatlar, ta'lim sohasidagi xizmatlar shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda kuzatildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-mart

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	2091,1	111,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	109,9	96,7
Moliyaviy xizmatlar	352,6	169,8
Transport xizmatlari	470,9	102,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	460,3	101,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	33,6	105,4
Savdo xizmatlari	689,1	104,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	67,2	106,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	75,4	110,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	31,9	119,1
Ijara xizmatlari	47,9	95,3
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	51,9	102,1
Shaxsiy xizmatlar	95,1	100,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	15,3	115,3
Boshqa xizmatlar	50,3	104,5


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-mart

Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 169,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (119,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (115,3 %), va ta'lim sohasidagi xizmatlarda (110,5 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 16,8 % ni tashkil etgan.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 689,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 33,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 90,6 mlrd. so'mga oshdi.



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 82,4 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 10,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi.

2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 5,4 % ga o'sdi, hajmi esa 4,6 mlrd. so'mga oshib, 33,6 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 91,0 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 9,0 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-mart


2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Andijon viloyati	2091,1	111,1
Shaharlar:		
Andijon	988,7	116,6
Xonobod	26,0	105,0
Tumanlar:		
Oltinko'l	69,4	107,0
Andijon	114,2	107,2
Baliqchi	93,5	106,1
Bo'z	22,6	105,8
Buloqboshi	57,1	105,9
Jalaquduq	73,4	106,3
Izboskan	91,4	106,5
Ulug'nor	18,5	105,1
Qo'rg'ontepa	89,6	106,7
Asaka	135,0	107,0
Marxamat	66,8	106,5
Shahrixon	125,6	106,9
Paxtaobod	73,5	106,5
Xo'jaobod	45,8	106,0

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (988,7 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 116,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Andijon tumani (107,2 %), Asaka tumani (107,0 %) va Oltinko'l tumanlarida (107,0 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Ulug'nor tumani (105,1 %), Bo'z tumani (105,8 %) va Xonobod shaharlarida (105,0 %) kuzatildi.

Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Andijon shahri (47,2 %), Asaka (6,5 %), Shahrixon (6,0 %) va Andijon tumanlari (5,5 %) egallaydi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-mart

Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Ulug'nor (0,9 %), Bo'z (1,1 %), Xo'jaobod tumanlari (2,2 %) va Xonobod shahriga (1,2 %), to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 680,7 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Andijon shahrida 2274,9 ming so'mdan Ulug'nor tumanida 318,0 ming so'mgacha oralig'ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm



Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Oltinko'l (4,9 %), Asaka (4,9 %), Shahrixon (4,8%), Qo'rg'ontepa (4,8 %), Andijon (4,7 %) tumanlarida kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 104,7 ming so'mga oshdi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-mart

2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlarining oshishi



Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Ulug'nor tumani (103,1 %) va Xonobod (103,1 %) shahrida kuzatildi.

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tarkibiy qayta qurilishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaruriy sharoitdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

71-230-82-63